

MAKTAB O'QUVCHILARI ORASIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

*G‘oybnazarova O‘g‘uloy Abdunazarovna
Pastdarg‘om tuman MMTBga qarashli 66-umum
ta ‘lim maktabi boshlang‘ich sinfo ‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqiy ong huquqiy madaniyat tushunchasi, uni maktab o‘quvchilariga yoshlikdan tushuntirish va maktab o‘quvchilarida odatiy huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishning ahamiyati va maktab o‘quvchilariga dastlabki huquqiy tushunchalarni berish va bu orqali ularda jamiyat va davlatda o‘rnatilgan qonun-qoidalarni hurmat qilish ruhini shakllantirishning davlat taraqqiyotidagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Annotation: This article discusses the concept of legal awareness and legal culture, the importance of explaining it to schoolchildren from a young age, the formation of a common legal awareness and legal culture in schoolchildren, and the role of providing schoolchildren with basic legal concepts and thereby forming in them a spirit of respect for the laws and regulations established in society and the state in the development of the state.

Huquqiy ong - ijtimoiy ong shakli; **jamiyat** a’zolarining mavjud huquqiy munosabatlar va huquqni tushunishi, huquq-tartibot haqidagi tasavvurida o‘z aksini topadi. Huquqiy ong nafaqat amaldagi **huquq**, balki uning tarixi, shuningdek boshqa jamiyatlardagi voqeliklarni bilishni ham o‘z ichiga oladi. Alovida shaxs, guruh va jamiyatning Huquqiy ongi ajratib ko‘rsatiladi. Huquqiy ong huquqiy **mafkura** va huquqiy psixologiyadan tashkil topgan. Huquqiy mafkura — har xil huquqiy hodisalar haqidagi nuqtai nazar, tushuncha, g‘oya va qarashlarning ilmiy umumlashtirilgan tizimidan iborat. Huquqiy ongning huquqiy mafkura qismida aksini topgan huquqiy hodisalar huquqqa bag‘ishlangan maxsus nazariy izlanishlarda o‘z rivojini topib, ilmiy darajada anglab yetiladi. Bunday ilmiy asarlarning mazmuni odamlar ma’naviy mulkiga aylanib, ularning ongiga aniq huquqiy bilimlarni, mulohazalarni, e’tiqod va kayfiyatni olib kiradi. Huquqiy mafkura — shaxsning Huquqiy ongini ilmiy asosda shakllantira borib, huquqqa, odamning huquqqa bo‘lgan munosabatiga hal qiluvchi ta’sir qiladi. Huquqiy **psixologiya** — huquqiy hodisalarni **hissiyot** bilan anglashdir. Odam ijtimoiy hodisalarni, jumladan, huquqiy munosabatlarni nafaqat aql bilan, balki **sezgi** bilan ham tushunib yetadi.

Huquqiy ong darajasi jamiyat a’zolarining huquqiy ma’lumotlariga ham bog‘liqdir. Shunga ko‘ra, fuqarolarning **huquqiy madaniyat** darajasini ko‘tarishga ko‘mak beradigan huquqiy ax-borot tizimini tashkil qilishning ahamiyati katta. Huquqiy

madaniyatning darajasiga qarab, Huquqiy ong 3 turga ajratiladi: oddiy, ilmiy va kasbiy. Oddiy Huquqiy ong, odatda, o‘z-o‘zidan vujudga keladi va odamning shaxsiy tajribasi, huquqiy hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan hayotiy vaziyatlar haqidagi tushunchasi bilan belgilanadi. Bunga odamning ishga joylashuvidagi yoki oliy o‘quv yurtiga kirish qoidalari yo bo‘lmasa yo‘l qoidasini buzganligi uchun javobgarligi haqidagi bilimlar misol bo‘la oladi. Huquqiy ong borliq haqidagi oddiy tushunchalar chegarasida qolib ketmaydi, doimo rivojiana borib, nazariy, ilmiy tushunchaga aylanadi. Ilmiy Huquqiy ong ijtimoiy huquqiy haqiqatni u yo bu darajada to‘g‘ri aks ettiruvchi bilimlar tizimini o‘z ichiga oladi. Kasbiy Huquqiy ong esa yuridik oliy o‘quv yurtlarida o‘qish natijasida shakllanadi, so‘ngra, huquqiy amaliyot jarayonida sayqallanadi. Huquqiy fanlar vakillari, huquqshunos amaliyotchilar uning sub’yektlari hisoblanadi.

Huquqiy ong jamiyat hayotining ijtimoiysiyosiy sharoitlari, uning madaniy HUQUQIY, demokratik yoki avtoritar an‘analari bilan belgilanadi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Yurtimizda so‘nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019 yildagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” Farmonida “yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o‘rgatish;” asosiy vazifa qilib belgilab berilgan bo‘lib, ushbu me’yoriy hujjat huquqiy demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatni qurishni o‘z maqsadi qilib olgan jamiyatimiz uchun huquqiy tarbiyaning asosini belgilab beruvchi asosiy tamoyil bo‘lib xizmat qiladi. Darhaqiqat har qanday jamiyatda yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi doimo dolzarb muammo sifatida e’tirof etiladi. Uning ikkinchi muhim jihatni esa yoshlarning ijtimoiy-huquqiy ongini shakillantirishda huquqiy tarbiyaning roldir. O‘zbekiston Respublikasining uzlusiz ta’lim tizimining ajralmas va eng asosiy bo‘g‘ini boshlang‘ich ta’lim ekanligini e’tiborga olgan holda aynan huquqiy tarbiyani rivojlantirishga shu bosqichda alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar huquqiy jihatdan chuqur nazariy va amaliy bilimlar hamda malaka va ko’nikmalarga ega bo‘lishi bilan birga milliy urf-odatlar va qadriyatlarni hurmat qilishi, ma’naviy, ruhiy, jismoniy jihatdan sog’lom va barkamol, fuqorolik burch va mas’uliyatini shakllangan bo‘lib voyaga yetishlari kerak. O‘quvchilarda huquqiy tarbiyalashda muktab miqyosida olib boriladigan, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni olib borishda xalqning boy merosidan unumli foydalanish, uning tizimli asosini ishlab chiqish, o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadimizni samarali amalga oshishishiga sababchi bo‘ladi. Chunki, huquqiy tarbiya bu- tashkiliy ravishda

muntazam olib boriladigan, aniq maqsadni ko'zlagan va shaxsga «guruh shaxslariga» ta'sir qila oladigan, ularda huquqiy ong, huquqiy bilim, qonunlarga rioya qilish xislatlarini vujudga keltiradigan harakatdir. Aynan o'qitish jarayonida olib boriladigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida huquqiy tushunchalarni shakllantirish bu har bir o'quvchining ichki hayoti, muhit kechinmalari, aqliy qobiliyatlari, idrokini mujassamlashtirish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi yo'lida xizmat qilish, O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatları, tili, madaniyati, diniy e'tiqodi, urf-odat va an'analarni hurmat qilish, ularni asrab avaylash va rivojlantirish, ma'rifatli, bilimli, huquqiy jihatdan madaniyatli, ma'naviy axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxs bo'lib yetishishi demakdir. Fuqarolik tarbiyasi tagzaminida xalq o'tmishi, tarixini o'rganish milliy qadriyatlar mohiyatini anglashga asoslangan faoliyatga o'quvchilarni yo'naltirish ijtimoiy maqsadni amalga oshirishga qaratirilgan yo'l sanaladi. O'quvchilarni haqiqiy fuqaro etib tarbiyalash, ularda fuqarolik tuyg'usini rivojlantirish, fidoiy, vatanparvar fuqaro sifatida tarbiyalash asnosida ta'minlanadi. Yosh avlodda fuqarolik hissi va e'tiqodini tarbiyalamay turib, ularda axloqiy, xulqiy odatlar va huquqiy ko'nikmalarini shakllantirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham fuqarolik tuyg'usini qaror toptirish murakkab jarayon hisoblanadi. Bunda dastlab o'quvchilarga fuqarolikning mohiyati va me'yoriy qoidalar mazmuniga oid ilk tushunchalar to'g'risida bilimlar beriladi. Avvalo, o'quvchiga fuqarolik odobi va madaniyati haqidagi tushunchalar beriladi, bu xildagi hatti-harakatlarga oid ibratli shaxslar faoliyatidan namunalar keltiriladi, so'ngra faoliyat uyushtiriladi. Ana shu asosida ularda fuqarolik tushunchasi shakllanadi va fuqarolik xulqiy odatlari, ko'nikmalar hosil qilinadi. Badiiy va ilmiy adabiyotlar, matbuot yangiliklari, kinofilm, spektakl g'oyalari, turli suhbatlar mazmunini tushuntirish, targ'ib etib borish orqali o'quvchilar ongiga fuqarolik tushunchalari singdiriladi. Bular orqali yosh avlodni qonunga itoatkorlik ruhini shakllantirib, ularda har qanday huquqqa zid harakatlar uchun javobgarlikning muqarrarligi tushuntiriladi. Xususan davlatimiz rahbarining 2019 yil 09 yanvar sanasidagi PQ-5618-sон qarorida ham quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib belgilandi:

aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjalari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida **“Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!”** degan hayotiy g'oyani mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va

huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, **shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtaсидаги мувозанатни саqlash g'oyalarini** keng targ'ib qilish;

yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish;

aholi o'rtaсида huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;

davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyatni institutlarining manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasidagi o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga doir tadbirlarni tashkil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanishni tizimli asosda yo'lga qo'yish;

ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish;

yuridik ta'limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish. Aynan shu qarordan yoshlarning ongida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish dolazarb masala ekanligini ko'rishimiz mumkin.